

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ RIVOJLANISHINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

DTPI Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Davlatova Shahzoda Shuxrat qizi

Tel: 978091102

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining psixolingvistik xususiyatlari keng yoritilgan. Nutqning fonetik, leksik, grammatik, semantik va pragmatik rivoji, ularga ta'sir etuvchi psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar. psixolingvistika, nutq rivojlanishi, maktabgacha yosh, fonematik idrok, grammatik tizim, kommunikativ ko'nikmalar.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЕЧИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В статье подробно анализируются психолингвистические особенности развития речи детей старшего дошкольного возраста. Освещены фонетические, лексические, грамматические, семантические и прагматические компоненты речи, а также психологические и социальные факторы, влияющие на их формирование.

Ключевые слова: психолингвистика, речевое развитие, дошкольный возраст, фонематическое восприятие, грамматическая система, коммуникативные навыки.

PSYCHOLINGUISTIC FEATURES OF SPEECH DEVELOPMENT IN OLDER PRESCHOOL CHILDREN

Annotation. *This article provides a detailed analysis of the psycholinguistic characteristics of speech development in older preschool children. It discusses phonetic, lexical, grammatical, semantic, and pragmatic aspects of speech, along with psychological, pedagogical, and social factors influencing speech acquisition.*

Keywords: *psycholinguistics, speech development, preschool age, phonemic perception, grammar system, communication skills.*

KIRISH. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishi psixologik-lingvistik jarayonlarning murakkab uyg'unligi natijasida shakllanadi. Nutq bolaning tafakkuri, idroki, xotirasi, tasavvuri va ijtimoiy muloqoti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Psixolingvistika nutqning shakllanish mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganadi. Maktabgacha katta yosh (6–7 yosh) bola nutq rivojlanishida eng sezgir, intensiv davr hisoblanadi. Psixolingvistika nuqtai nazaridan bu davrda bola nafaqat lug'at boyligini kengaytiradi, balki tilning grammatik, fonetik, semantik va pragmatik tizimini faol ravishda o'zlashtiradi.

Nutq bola tafakkurining shakllanishi, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishishi va shaxs sifatida rivojlanishining asosiy vositasidir. Katta guruh bolalarining kuzatgan voqeani esda saqlashi asosida nutqni rivojlantirishga yordam beruvchi hikoyasi ham samarali ekanligi namoyon bo'ldi. Ko'rganlarini esda saqlash asosida hikoya tuzish bilan bir qatorda, o'ylab, tasavvur etish, hikoya qilish ham nutq o'stirishning samarali usullaridan sanaladi. Tasavvur etish kichik va o'rta yoshdagi bolalarda o'yin, ko'rish, rasm chizish vositasida paydo bo'lsa, nutq faoliyatida katta yoshida tarkib topa boshlaydi va ijodiy xususiyat kasb etadi.

Bola bunda hikoyani o'zi yaratadi, ijod qiladi, qahramonlarining harakatlarini o'ylab topadi. Bu faoliyatda o'ylash, o'ylab topish, ijod qilish muhim sanaladi. Bunda dastlab tarbiyachi hikoyani boshlab berishi, so'ng bolalar davom ettirishi mumkin. Ana shu davom ettirish, tugallash jarayonida bola o'ylaydi, ijod qiladi. O'ylash, hikoya mazmunini «to'qish»da bolalar voqea bo'lgan joy, vaqti, mazmuni,

qahramonlarning xatti-harakatlariga alohida e'tibor beradilar. Ayniqsa, mazmun bilan birga bolalarning nutq shakliga e'tibor beriladi.

Psixolingvistik yondashuvning nazariy asoslari

Psixolingvistika lingvistika va psixologiya fanlari tutashgan nuqtada shakllanib, inson nutq faoliyatini va uning psixologik mexanizmlarini o'rganuvchi fan sifatida rivojlangan. Ushbu fan bolalar nutqining rivojlanish jarayonini chuqur tahlil qilishda va uning turli jihatlarini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Chunki bolalar nutqi nafaqat insonning intellektual rivojlanish ko'rsatkichlaridan biri, balki ijtimoiy moslashuvning ham asosiy mezoni hisoblanadi. Psixolingvistika bolalar nutqining rivojlanishida yuzaga keluvchi muammolarni hal qilishdan nazariy va amaliy vositalar sifatida qo'llaniladi. Ushbu fan yordamida nutq shakllanishining asab-psixologik mexanizmlari, til o'zlashtirish jarayoni, lingvistik tuzilmalar va nutq buzilishlari sabablarini aniqlash mumkin. Psixolingvistika til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. Bolaning fonematik eshituvining rivojlanishi, semantik tizimni o'zlashtirishi, grammatik strukturalarni anglash jarayoni psixolingvistik modellarga asoslanadi. Bolalar nutqini rivojlantirishning metodik masalalarini ishonchli tarzda psixologolingvistik asoslash zamonaviy pedagogik tadqiqotlarga xos jihatlar hisoblanadi. Rus pedagogika fanining eng yaxshi an'analari ruhida bajarilgan ushbu tadqiqotlar katta faktik materiallarga ega bo'ladi, bola nutqining ob'yektiv qonuniyatlarini aniqlaydi.

F.A.Soxin va O.S.Ushakovlarning tasnifidan foydalangan holda bolalar nutqini psixologik-pedagogik tadqiq qilishni uchta yo'nalishga ajratish mumkin: tuzilmaviy (til tizimining turli tuzilmaviy darajalarini: fonetik, leksik, grammatik darajalarini shakllantirish), funksional (kommunikativ faoliyatda tilni egallash ko'nikmalarini shakllantirish); kognitiv (til va nutq hodisalarini oddiy anglashni shakllantirish) nutqini rivojlantirish hodisasining o'zini va uni boshqarish jarayonini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasida ishlash uchun pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o'tishlari zarur, degan xulosani keltirib chiqaradi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining asosiy psixolingvistik belgilari — semantik tizimning kengayishi, fonetik apparatning takomillashuvi, grammatik strukturalarni ongli qo'llash, ichki nutqning shakllanishi, motivatsion va ijtimoiy omillarning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Bola nutq orqali nafaqat tasvirlaydi yoki nomlaydi, balki fikr yuritadi, sabab-oqibat munosabatlarini anglaydi, o'z munosabatini bildiradi.

Fonetik-fonematik rivojlanish

Katta maktabgacha yoshda fonematik idrok yetiladi. Bola tovushlarni farqlaydi, bo'g'inlarni ajratadi, tovushlarning o'rnini aniqlay oladi. Bu savod o'rgatishga tayyorgarlikning asosiy qismidir. Leksik rivojlanish ; 6–7 yoshda bola lug'ati 3000–3500 so'zga yetadi. Sinonim, antonim va ko'p ma'noli so'zlar faol o'zlashtirishni boshlaydi. Bu davrda bolada turli qobilyatlar namoyon bo'la boshlaydi

Grammatik tizimning shakllanishi

Bola sodda va murakkab gaplarni tuzishni o'rganadi. Fe'l zamonlari, sifat-dosh, ravishdosh shakllari nutqda mustahkam qo'llanadi. Bola matn tuzish, mazmunni izchil bayon etish, sabab–oqibat munosabatlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Nutq rivojiga ta'sir etuvchi omillar

Oilaviy muloqot sifati, pedagogik yondashuv, motivatsiya, psixologik muhit, individual psixologik xususiyatlar bevosita ta'sir etadi. Agarda bolalar biror narsadan qattiq qo'rsalar yoki uning gapirish jarayonida hatoliklar bo'lganda uning ustidan kulsa, bolada o'ziga bo'lgan ishonch yo'qoladi. Buning oqibatida bolada turli o'zgarishlar sodir bo'ladi; duduqlanish, kamgaplik, tengdoshlaridan ortda qolish va shu kabilar.

XULOSA. Har bir bolaning o'ziga xos характери va qiziqishlari bor. Har doim bolalarga e'tiborli bo'lishimiz va ular bergan har bitta savolga javob berishimiz lozim. Psixolingvistika maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini ilmiy asosda o'rganadi. Fonetik, leksik, grammatik va pragmatik tizimlarning izchil rivojlanishi

bolaning intellektual o'sishi uchun muhimdir. To'g'ri metodika va nutqiy muhit nutq rivojining samaradorligini oshiradi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishi murakkab psixolingvistik jarayon bo'lib, u bolaning umumiy intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Bu jarayonni samarali qo'llab-quvvatlash uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar, rivojlantiruvchi muhit, individual yondashuv va muntazam nutqiy muloqot zarurdir. Samarali tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni bolaning nutqini to'liq shakllantirish, maktab ta'limiga puxta tayyorlash va kelajakdagi kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga mustahkam poydevor yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Vygotskiy L.S. Til va tafakkur. Moskva, 1999.
2. Leontyev A.A. Psixolingvistika asoslari. Moskva, 2003.
3. Clark E. First Language Acquisition. Cambridge University Press, 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Metodik qo'llanmalar, 2022.
5. Gvozdev A.N. Bola nutqining rivojlanishi. Sankt-Peterburg, 2001.
6. SH.SH.Nizomova "Bolalar nutqini o'stirish nazaryasi va texnologiyalari" O'quv qo'llanma. Buxoro - 2022